

**BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARNI DARSDAN TASHQARI  
O‘QISHNING SAMARADORLIGI**

*Yusupova Sevara Davletiyar qizi  
Boshlang‘ich ta’lim fakulteti  
2-G Kurs Boshlang‘ich ta’lim  
Ajiniyoz nomidagi Nukus davlat pedagogika institute*

**Annotatsiya.** Ushbu maqolada boshlang‘ich sinflarning o‘qish darslarida sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etishning o‘ziga xos xususiyatlari haqida fikrlar bildirilgan.

**Kalit so‘zlar:** boshlang‘ich talim, o‘quvchi, sinf, kitob, o‘qish

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 12-yanvardagi “Kitob mahsulotlarini chop etish va tarqatish tizimini rivojlantirish, kitob mutolaasi va kitobxonlik madaniyatini oshirish hamda targ‘ibot qilish bo‘yicha komissiya tuzish to‘g‘risidagi farmoyishi” ni bajarishda boshlang‘ich sinflarda tashkil etiladigan sinfdan tashqari o‘qishning o‘rni beqiyosdir. Chunki, hayotimiz davomida olinadigan bilimlar poydevori aynan boshlang‘ich sinflarda qo‘yiladi. Bu bejiz emas. Inson umrining eng samarali davri boshlang‘ich sinf yillaridir. Bu vaqtida xotira kuchi o‘tkir, bilim o‘rganishga bo‘lgan ishtiyoq baland bo‘ladi. Aynan shu davrdan foydalanib sinfdan tashqari o‘qish orqali o‘quvchilarda kitob va kitobxonlikka muhabbatni tarbiyalashni boshlash ayni muddao bo‘ladi. “Maktab kutubxonasi” turkumidagi “Kitobim-oftobim” nomli sinfdan tashqari o‘qish kitobi 1-4-sinf yoshidagi bolalar uchun har bir sinfga 4 ta kitob tarzida mo‘ljallangan. Har bir kitobda taniqli bolalar yozuvchi va shoirlari qatorida yosh ijodkorlarning ham maktab dasturiga kiritilmagan qiziqarli asarlari jamlangan. Kitobda jamlangan asarlardan o‘quvchilar mustaqil o‘qish uchun, otaonalar bolalari bilan shug‘ullanganda, dunyoqarashini kengaytirish, badiiy asarlarni ko‘proq o‘qishlari uchun yo‘llashda foydalanish imkonini beradi. Sinfdan tashqari o‘qish o‘quvchilarda kitobxonlik madaniyatini tarbiyalaydi. O‘quvchilarni oddiy kitobxondan ijodkor kitobxon darajasiga ko‘tarishda yordam beradi. O‘quvchilarda kitobga havas uyg‘otishda boshlang‘ich sinf o‘qituvchisidan yana bir iqtidorni talab etadi. O‘qituvchi har bir bolaga yakka tartibda yondashishi, shaxsiy qiziqishlarini hisobga olishi kerak. Bolalarni kitob ustida ishslash malakasini ham o‘qituvchi tarbiyalaydi. Sinfdan tashqari o‘qish davomida o‘quvchilar tanish bo‘lmagan mualiflar hayoti va ijodi bilan tanishish imkonini ham beradi. O‘quvchilarda ezgulikka muhabbat, yovuzlikka nafratni uyg‘otadi. Badiiy asarlar o‘quvchilarni nutqini boyitadi, adabiy-estetik tafakkurini yuksaltiradi. Sinfdan tashqari o‘qish darslari o‘quvchilarda mustaqil kitob tanlash va o‘qish malakalarini shakllantiradi. O‘qish malakasini shakllantirishning boshlang‘ich

bosqichi 1-sinfning 2-yarim yilligiga to‘g‘ri keladi. Savodga o‘rgatish davrida o‘qituvchi asarni o‘zi tanlagan bo‘lsa, endi o‘quvchilar qiziqishi ham e’tiborga olinadi. 1-sinf o‘quvchilari uchun “Kitobim-oftobim” sinfdan tashqari o‘qish kitobida berilgan Rauf Tolibning “Quyosh sevgan yurt”, O‘tkir Rashidning “Vatanim”, Q. Muhammadiyning “Do‘sst do‘ssta oyna ekan”, Y.Sulaymonning “Tilagim” hikoya va she’rlari o‘quvchilarda Vatanga muhabbatni, tinchlik va do‘stlikni qadrlashni o‘rgatadi. T. Adashboyevning “O‘qishni bilsang o‘zing”, X. To‘xtaboyevning “Erkinlik”, Mahmud Murodovning “Koptok” she’r va hikoyalari o‘quvchilar qalbida bolalik beg‘uborlikni madh etadi. Kitobda berilgan “Kimning qo‘li chiroqli”, “Aql va boylik”, “O‘g‘rining qismati”, “Tonggi so‘z”, “Attang” kabi ertak va hikoyalarni o‘qigan bola qalbida faqat yaxshiliklar, mehnatga muhabbat, kattalarga hurmat, ilm olishga ishtiyoqni tarbiyalaydi. 1-sinflar uchun tayyorlangan bu kitobda berilgan onalarni ulug‘lovchi, milliy an‘analarimizni aks ettiruvchi hikoyalari va quvnoq she’rlarni o‘quvchilar qayta-qayta o‘qishga intiladilar. O‘qituvchi sinfdan tashqari o‘qish darslarini tashkil etar ekan, qanchalik xilma-xillikka, hayotiylikka erishsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. Har bir darsda o‘quvchilar o‘qigan kitoblar hisobga olinishi kerak. O‘quvchilar o‘zi o‘qigan kitoblari mazmunini so‘zlab berishlari mumkin. Har bir darsda o‘qituvchi o‘quvchilarga yangi kitoblarni o‘qishga tavsiya etishi mumkin. O‘quvchilarni kutubxonaga a’zo bo‘lishlari ham o‘qituvchi va kutubxonachi hamkorligida tashkil etilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi. O‘quvchilarni kitob tanlashlarida ularning yosh hususiyatlari hisobga olinadi. Tanlangan kitoblari ularning yoshiga mos, ular uchun tushunarli va qiziqarli bo‘lishi kerak. Sinfdan tashqari o‘qish darslari 2- sinfda haftada 1 marta, 3-4-sinflarda 2 haftada 1 marta o‘tkaziladi. O‘quvchilarni ifodali kitob o‘qishlari, o‘quvchilarda zavq-shavq uyg‘otib kitobga, badiiy asarga havas, uni o‘qib o‘rganishga intilish kuchayadi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida o‘qituvchi o‘quvchilarni bolalar yozuvchilari va shoirlar bilan tanishtirib borishi lozim. Q. Muhammadiy, P. Mo‘min, Z. Diyor, A. Obidjon kabi yozuvchi va shoirlarning assarlari o‘quvchilarda katta qiziqish uyg‘otadi. Shuning uchun har bir maktab, ta’lim muassasida ijod ahli bo‘lgan shoir va yozuvchilar bilan uchrashuvlar tashkil etib turishlari kerak. Bunday uchrashuvlar o‘quvchilarni Vatani sevishga, uni ardoqlashga, uning kelajagi uchun o‘z hissasini qo‘sadigan farzandlar bo‘lib ulg‘ayishga chorlaydi. Kitobni, asarni, she’rni qanday paydo bo‘lishini, uni hurmat qilish, asrab-avaylashni o‘rgatadi. Sinfdan tashqari o‘qishning asosiy vazifasi bolalarni mustaqil kitob bilan ishslash, o‘qish malakalarini takomillashtirish, bilimlarini boyitishni asosiy maqsad qilgan hisoblanadi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida rollarga bo‘lib o‘qish usulidan ko‘proq foydalanish kerak. Bu usul o‘quvchilarni qiziqishlarini yanada oshiradi. Sinfdan tashqari o‘qish darslarida “G‘uncha”, “Gulxan”, “Bilimdon” jurnallari va “Tong yulduzi” gazetalari sahifalari bilan ham tanishib boradilar. Ularda mustaqil o‘qish ko‘nikmalari tarbiyalanadi. O‘quvchilarni o‘qigan kitob va jurnallari haqida fikrlarini, bahs-munozara tarzida

adabiy kechalar tashkillansa, shoirva yozuvchilar, kitobxonlar bilan uchrashuvlar tashkillansa adabiyotni sevadigan, mustaqil fikrlaydigan kitobxonlar tarbiyalanadi. Sinfdan tashqari o‘qish mashg‘ulotlari o‘qish darslari bilan bog‘lab olib boriladi. O‘qish darslarida o‘tilgan mavzular asosida badiiy kitoblarni tanlay olish, asar qahramonlarining yaxshi va yomon fazilatlarini ajratib yoza olish, ularni tasvirlab berish, ijodiy rasm ishslash, fikrni xulosalay olish, ularga mos maqol va she‘r misol tarzida ayta olish ko‘nikmasi hosil bo‘ladi. O‘qituvch sinfdan tashqari o‘qish darslarini rejalahtirar ekan, u rang-baranglikka e’tibor qaratishi kerak. Darsda har safar ertakdan foydalanish, yoki har safar hikoya o‘qish bola uchun zerikarli bo‘lishi mumkin. Shuning uchun ertak, hikoya, she‘r, topishmoq va maqollar, afsona va rivoyatlar ketma-ketligi asosida tashkillansa o‘quvchining darsga qiziqishi, mustaqil kitob o‘qishga muhabbat yanada oshadi. Sinfdan tashqari o‘qish darsini ham o‘qituvchi boshqa darslar kabi chiroyli tashkillay olsa, darsda o‘yin, axborot texnologiyalarini tatbiq etish, sahna darsi yoki darsga asar qahramonlarini kirib kelishi asosida tashkillansa o‘quvchilar uchun juda qiziqarli bo‘ladi. Ular shu darsni intazorlik bilan, yana qanday yangilik bilan boshlanishini kutadilar. O‘quvchilarda kitobga muhabbat hissini tarbiyalashda o‘qituvchi bilan ota-onaning hamkorligi ham katta ahamiyatga ega. Bolada kitobga muhabbatni tarbiyalashda avvalo, ota-onal kitobxon bo‘lishi kerak. Ayniqla, onalar. Chunki, ular bola tarbiyasi bilan ko‘proq shug‘ullanadilar. Onalar bolaga ko‘proq ertak, hikoyalar aytib qiziqtirishi lozim. Kitob bilan endigina tanishgan bolasini “Kitobzerikarli narsa”, degan xulosaga kelib qolishini oldini olishi kerak. Ota-onalar farzandiga kitob olib berishda ularni yosh hususiyatlarini hisobga olishlari, o‘qituvchisi bilan maslahat qilishlari yaxshi natija beradi. Kichik yoshdagi o‘quvchilar uchun ravon yozilgan, tez yodda qoladigan, humor tuyg‘usini tarbiyalovchi kitoblar tavsiya etiladi. Bu davr bolalari o‘zları o‘qigan, tinglagan asarlari yordamida atrof-muhit bilan tanishadilar, ona yurtga muhabbatli bo‘lishni, tabiatga va mehnatga mehr berishni o‘rganadilar. Bolalarni yoshlikdan kitobni sevish, mustaqil mutolaaga o‘rgatish muhimdir. Kitob ularni fikrlash qobiliyatini o‘siradi, qalblarida eng yaxshi orzu-istiklarni uyg‘otadi. . Bu xildagi hikoyalar, topishmoq, maqollar ham kichkintoylarni mustaqil fikrlashga, turmush taassurotlarini to‘plab, ulardan xulosa chiqarishga o‘rgatadi. Boshlang‘ich sinf o‘quvchilari asta-sekin mustaqil o‘qishni boshlaydilar. Yangi qabul qilingan farmoyishga ko‘ra boshlang‘ich sinf o‘quvchilarini 5- kunlik ta’limga o‘tkazilishi ayni muddao bo‘ldi. Chunki, ota-onalar farzandlari bilan dam olish kunlari kutubxonalarga, kitob do‘konlariga borish imkoniyatiga ham ega bo‘ladilar. Kitob bilan do‘st bo‘lgan bola hech qachon yomon illatlar asiriga aylanmaydi. Shunday ekan, otaonalar, tarbiyachilar bola maktabga chiqqunga qadar ham ularga kitob o‘qib bersalar kitobga muhabbat yoshlikdan boshlanadi. Bugungi kunda sadoqatli do‘st va ishonchli sirdosh bo‘lgan kitobga bo‘lgan e’tibor kuchaymoqda. O‘quvchilarni ko‘proq amaliy faoliyatga tayyorlashda, egallagan bilimlarini amaliyatga tatbiq qila olishga,

kasbga yo‘naltirishda ham kitobning o‘rni katta. O‘quvchilarni boshlang`ich sinflardanoq milliy g‘urur va iftixorni o‘stirish, ularni vatanparvarlik ruhida tarbiyalashda, kitobga mehrni oshirish, ajoyib kitobxonlarni tarbiyalashda sinfdan tashqari o‘qish darslarini o‘rni beqiyos bo‘lib qoladi.

**Foydalanilgan adabiyotlar:**

1. Umumiy o`rta va o`rta maxsus, kasb – hunar ta`limining Davlat ta`lim standartlarini tasdiqlash to`g`risidagi qarori. 2017- yil.
2. “Sinfdan tashqari o‘qish” “O‘qituvchi” nashriyoti. Toshkent – 2011- yil.
3. “Boshlang`ich ta`lim” jurnali 2012- yil 4-son.
4. “Kitobim-oftobim” B. Ma’qulova, D. Nasriddinova. Toshkent – 2016- yil.
5. 2017-yil 12-yanvardagi Prezident farmoyishi.